

## Ielts Reading Ko'nikmasini Rivojlantirish Uchun Eng Samarali Usullar Va Tavsiyalar

Absalamova Rohila Habibulla qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti 1-kurs talabasi

[absalamovarohila@gmail.com](mailto:absalamovarohila@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola IELTS Reading ko'nikmasini rivojlantirish uchun eng samarali usullardan foydalanish va eng foydali tavsiyalarga to'g'ri amal qilish haqida. Shuningdek maqolada, Reading yechish jarayonida vaqtidan qanday qilib unumli foydalanish, so'z boyligini qanday oshirish, testda asosan nimalarga ahamiyat berish va qaysi passagelarga ko'proq e'tibor qaratish haqida ham ta'kidlab o'tilgan. Shu bilan birga maqolada Reading yechish jarayonida tug'iladigan qiyinchiliklarga imkon boricha tezroq barham berish haqida tavsiyalar ham berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** reading passage, TOEFL, tahliliy fikrlar, diversifikatsiya, practice test, akademik til.

### Kirish

Hozirgi kunda ingliz tili dunyoda eng rivojlangan va kundan-kunga taraqqiy etib borayotgan tillar qatorida yuqori pog'onalarni zabit etayotganligi hech kimga sir emas. Chunki ushbu til ko'plab mamlakatlar va ma'daniyatlar o'rtasida asosiy muloqot vositasi bo'lganligi, butun jahon bo'yicha bir qancha mamlakatlarda "davlat tili" maqomiga egaligi, aholi o'rtasida ushbu tilni o'rganishga bo'lgan talab bir necha yil oldingiga nisbatan maksimal darajada oshganligi kabi bir qancha dalillar ingliz tilini butun dunyo bo'yicha globallashuviga sababchi bo'layotgan muhim omillar sifatida qaralyapdi. Shuningdek, ushbu xorij tili doirasida bir qancha xalqaro sertifikatlar, til bilish darajasini ko'rsatib beradigan hujjatlar tadbiq etilayotganligi hammaga ma'lum. IELTS, TOEFL, Multilevel va shunga o'xshagan boshqa sertifikatlar shular jumlasidandir. Ushbu sertifikatlarga imtihon topshirish jarayonida o'quvchilarga, albatta, Reading bo'yicha savollar va topshiriqlar beriladi hamda o'quvchining bilim darjasini ma'lum bir standartlar asosida baholanadi. Ko'pchilik o'quvchilarning fikriga ko'ra, IELTS sertifikatiga imtihon topshirish jarayonida boshqa aspectlarga nisbatan Reading biroz qiyinchiliklar tug'dirishi ta'kidlanadi. Shu sababli ushbu maqola asosan Readingni oshirish uchun tavsiyalar va samarali usullardan foydalanishga yo'naltirildi. Shu bilan birga bir qancha tavsiya va samarali usullar ham maqola davomida sanab o'tiladi.

### Ielts Reading ko'nikmasini rivojlantirishda kitob va maqolalarning ahamiyati. O'qish turini diversifikatsiya qilish:

Qiziqarli ilmiy maqolalar, jurnal va ingliz tilidagi kitoblarni o'qish orqali IELTS Reading skorni oshirish tavsiya beriladi. Sababi, gazeta va jurnallardagi maqolalar-bu nafaqat qiziqarli manba, balki lug'at boyligini kengaytirish, matn tuzilishini tushunish va o'qish tezligini oshirish uchun ajoyib vositadir. Jurnal va gazetalardagi maqolalar odatda turli mavzularni qamrab oladi-bu esa sizning o'qish qobiliyatizingizni turli sohalarda sinab ko'rishga imkon beradi. Masalan, ilm-fan, madaniyat, iqtisodiyot va ekologiyaga oid maqolalar IELTS Reading bo'limida uchraydigan matnlarga o'xshash bo'ladi. Shuning uchun muntazam ravishda gazeta va jurnal maqolalarini o'qish orqali o'zingizni akademik matnlarni tushunishga tayyorlaysiz. Bundan tashqari, gazeta maqolalarida ko'p uchraydigan sinonimlar, murakkab iboralar va tahliliy fikrlar IELTS testida duch keladigan

savollarni oson hal qilishga yordam beradi. Bu sizning matndan asosiy fikrni tezda topish va keraksiz ma'lumotlarni chetlab o'tish qobiliyatingizni kuchaytiradi. Bundan kelib chiqqan holds, IELTS Reading natijalarini yaxshilash maqsadida, The Guardian, BBC News, National Geographic kabi nufuzli nashrlarni muntazam o'qish odatini rivojlantirish muhim. Bu talabgorning nafaqat ingliz tilida o'qish ko'nikmasini, balki fikrlash doirasini ham kengaytiradi. Ilmiy jurnallar va tadqiqot maqolalari akademik til va murakkab tuzilgan matnlar bilan ishlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Bu IELTS Reading bo'limida ko'p uchraydigan tahliliy matnlarni tushunishni osonlashtiradi. Reading matnlarini o'qish jarayonida diversifikatsiya deb ataluvchi tushuncha ham mavjud. Diversifikatsiya shunchaki o'qishni yanada qiziqarli qiladi va charchashning oldini oladi. Turli mavzular va yozuv uslublari bilan tanishish – testda imtixon topshiruvchi va test muhitini o'rtaida moslashuvchanlikni oshiradi va matnni tushunish tezligini yaxshilaydi. Shu sababli, har kuni kamida 20 daqiqa gazeta maqolasi, blog yoki jurnal maqolasini o'qib borish IELTS Reading skorga ijobiy ta'sir qiladi..

### **Akademik va umumiylardan matnlarda tez-tez uchrab turadigan so'zlarni o'rganish:**

IELTS Reading bo'limida yuqori natijaga erishishning muhim qismi – so'z boyligini kengaytirishdir. Akademik va umumiylardan matnlarda tez-tez uchraydigan so'zlarni oldindan o'rganish, matnni tushunishni osonlashtiradi va test paytida qimmatli vaqtini tejaydi. IELTS matnlarida odatda murakkab va noaniq iboralar emas, balki akademik muhitda keng qo'llaniladigan asosiy so'zlar ishlataladi. Masalan, *analyze, significant, approach, concept, illustrate* kabi so'zlar akademik matnlarda ko'p uchraydi. Ushbu so'zlarni tushunish va ularning sinonimlarini bilish, savollarni tezroq va aniqroq javob topishga va berishga yordam beradi. Bundan tashqari, umumiylardan matnlarda *trend, issue, benefit, impact* kabi iboralar ishlataladi va ularning turli kontekstdagi ma'nolarini tushunish muhimdir. Har kuni 10-15 ta yangi so'z o'rganib, ularni matn ichida qanday ishlatalishini ko'rib chiqish o'qish va tushunish qobiliyatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Akademik va umumiylardan matnlarda uchraydigan so'zlarni o'zlashtirish – IELTS Reading bo'limida ishonchli va samarali natijalarga erishishning kalitidir.

### **Metodologiya**

#### **Ko'p amaliy mashq qilish (Practice Tests):**

IELTS Reading bo'limida yuqori ballni qo'lga kiritishning eng samarali yo'llaridan bir sifatida yana muntazam ravishda amaliy mashqlar bajargan holda tayyorgarlik ko'rishga urg'u beriladi. Practice tests (amaliy testlar) testga tayyorgarlik ko'rurvchi uchun real imtihon sharoitiga tayyorlab, o'qish tezligi, tushunish darajasi va vaqtini boshqarish ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi. IELTS Reading testi cheklangan vaqt ichida matnni o'qib, 40 ta savolga javob berishni talab qiladi. Bu esa yuqori e'tibor va tezkor fikrlashni talab etadi. Muntazam ravishda practice tests bajarish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

#### **1. Vaqt Boshqaruvi Yaxshilanadi;**

Har bir amaliy test vaqt chegarasida bajarilayapti degan tasavvurni yaratadi. Bu esa imtihonda vaqt yetishmasligi muammosining oldini oladi. Har bir matn uchun vaqt chegarasi belgilagan holda,

1-matn – 15 daqiqa

2-matn – 20 daqiqa

3-matn – 25 daqiqa deb vaqtini to'g'ri taqsimlashni miyaga uqtirish zarur.

#### **2. Savol Turlarini Yaxshiroq Tushunish;**

IELTS Reading bo'limida turli xil savollar beriladi. Jumladan:

True/False/Not Given

Matching Headings

Gap Fill

Short Answer Questions kabi savol turlari bunga yorqin dalildir.

Amaliy mashqlar ushbu savol turlariga moslashishga yordam beradi. Har bir testdan keyin savollarning qanday tuzilganini tahlil qilib, xatolar ustida ishlash ham Readingni muvafaqqiyatli topshirishga asosiy omil sifatida qaraladi.

### **3. *Lug‘at Boyligi Oshadi ;***

Amaliy testlar davomida akademik va umumiy matnlarda tez-tez uchraydigan yangi so‘zlar va iboralarga duch kelish bu, albatta, tabiiy hol va ularni daftar yoki kartochkalarga yozib, izchil o‘rganish foydadan xoli emas. Bu nafaqat Reading, balki Writing va Speaking bo‘limlarda ham sezilarli darajada o’sish uchun yordam beradi.

### **4. *Xatolardan O‘rganish;***

Practice tests natijalarini tahlil qilish – o‘z ustida ishlashning eng samarali usuli. Noto‘g‘ri javoblarni ko‘rib chiqib, ularning sababini aniqlash practice jarayonini to‘g‘ri boshqarish uchun poydevordir. Har bir xato – bu o‘rganish imkoniyati, Readingni rivojlantirish va samarali natija uchun poyqadam.

### **5. *Ishonch Ortadi;***

Ko‘p amaliy testlar bajargan sari IELTS Reading bo‘limiga bo‘lgan ishonch ortib boradi. Bu shubhasiz talabgorni imtihon kunida xotirjam va tayyor his qilishga yordam beradi.

### **Natija va muhokama**

#### **Savollarni avval o‘qib chiqish: (Ielts Readingda samarali yondashuv)**

IELTS Reading bo‘limida vaqtini tejash va aniq javob topish ko‘nikmasini oshirish uchun eng samarali strategiyalardan biri – matnni o‘qishdan oldin savollarni o‘qib chiqishdir. Bu yondashuv matnda nimaga e’tibor qaratishingiz keraklikni oldindan bilishga yordam beradi va kerakli ma’lumotlarni tezroq topishga imkon yaratadi. IELTS Reading testi 60 daqiqa davom etadi va bu vaqt ichida uchta uzun matnni o‘qib, 40 ta savolga javob berish kerak. Agar har bir matnni avval to‘liq o‘qib, keyin savollarni ko‘rib chiqmoqchi bo‘linsa, vaqt yetishmasligi mumkin. Shu sababli, matnni o‘qishga kirishmasdan oldin savollarni o‘qib chiqish orqali, matndagi muhim ma’lumotlarga diqqat bilan yondashish va keraksiz qismlarni chetlab o‘tib, qimmatli daqiqalarni tejash mumkin. Har bir savolni tushunishga harakat qilgan holda va kalit so‘zlarni belgilash lozim. Kalit so‘zlar – sanalar, joy nomlari, ismlar yoki muhim atamalardan iborat bo‘lishi mumkin. Agar savolda “according to the text” yoki “choose two from the list” kabi iboralar bo‘lsa, ularning mazmunini to‘liq tushunish maqsadga muvofiqdir. Savollarni matndan oldin o‘qib chiqish – IELTS Reading bo‘limida samarali va aniq javob topish uchun muhim strategiyalardan biridir. Bu usul vaqtini tejaydi, matnni tushunishni yengillashtiradi va tezroq javob topishga undaydi. IELTS testida yuqori natijaga erishmoqchi bo‘lgan har bir o‘rganuvchiga, ushbu strategiyani muntazam ravishda amaliyotda qo‘llashga odat qilish tavsiya beriladi.

#### **"Murakkab Matnlarni O‘qish va Tushunish: IELTS Reading uchun Foydali Maslahatlardan biri"**

IELTS Reading bo‘limi talab qiladigan o‘qish va tushunish darajasi har xil bo‘ladi. Matnlar murakkab, ilmiy va umumiy mavzularda bo‘lishi mumkin, shuning uchun ular nafaqat lug‘at boyligini, balki o‘qish tezligini va matndan ma’lumotni samarali ajratib olish qobiliyatini ham talab qiladi. Murakkab matnlarni o‘qish va tushunish esa IELTS testida muvaffaqiyatga erishish uchun juda muhim qadamdir. Har bir matnning tuzilishini tushunish o‘qish jarayonini osonlashtiradi. Ko‘pincha matnlar quyidagi tuzilmalarga ega bo‘ladi:

Kirish, rivojlanish va xulosa – Har bir paragrafda ma’lum bir fikrni izohlaydi, rivojlantiradi va xulosa chiqaradi.

Sarlavhalar va bo‘limlar – Matnning bo‘limlari va sarlavhalari ma’lumotning asosiy yo‘nalishini ko‘rsatadi. Ushbu qismlar orqali matnni yanada tushunarliroq qilish mumkin. Murakkab matnlarni

o‘qish va tushunish – bu mashq orqali rivojlanadigan ko‘nikma. Har kuni IELTS o‘quv materiallaridan yoki ilmiy va akademik jurnallardan matnlar o‘qish yaxshi odat hisoblanib, bu o‘qish tezlikni va tushunish darajani oshiradi. Murakkab matnlarni o‘qish va tushunish – IELTS Reading bo‘limida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan qobiliyatdir. O‘qishning samarali yondashuvlarini o‘rganish, murakkab so‘zlar va iboralarni tushunish, matnning tuzilishini anglash, va muntazam mashq qilish orqali IELTS Reading bo‘limida yuqori natijalarga erishish mumkin. Shuningdek, ushbu maslahatlardan foydalanish nafaqat testda, balki umumiy o‘qish qobiliyatini rivojlantirishda ham yordam beradi.

## Xulosa

Xulosa qilib aytiganda, IELTS Reading bo‘limi – bu faqatgina o‘qish va tushunish qobiliyatini emas, balki vaqtini boshqarish, savollarga anqlik bilan javob berish, va matndan muhim ma‘lumotlarni tezda izlashni talab qiladigan qiyin sinovdir. Biroq, ushbu bo‘limdagi muvaffaqiyatni oshirish uchun aniq va samarali strategiyalarni qo‘llash mumkin. Maqolada muhokama qilgan maslahatlarga ko‘ra, quyidagi yondashuvlar IELTS Reading bo‘limida yuqori natijalarga erishish uchun eng samarali yo‘l hisoblanadi. IELTS Reading bo‘limida muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat o‘qish qobiliyatini, balki strategiyalarni ham rivojlantirish zarur. Savollarni oldindan o‘qib chiqish, murakkab matnlarni tushunish, ko‘p amaliy mashq qilish, va keng qamrovli o‘qish turini qo‘llash orqali testda muvaffaqiyatga erishish mumkin. Ushbu usullar nafaqat Reading bo‘limida, balki boshqa IELTS bo‘limlarda ham talabgorning bilim salohiyatini bir yoki undan ham balandroq darajaga chiqarishga olib keladi. Muntazam va maqsadli tayyorgarlik IELTS imtihonida yuqori natijalarga erishish yo‘liga ishonch bilan olib boradi. Zero “Til bilgan odam el biladi“. Jamiyatda o‘z o‘rnini qolganlarga qaraganda tezroq topa oladi. Shu bilan birga dunyo qarashi oddiy bo‘lgan insonlardan ajralib turadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Absalamova, R. H. (2024). Ingliz tilini o‘rganish: shaxsiy rivojlanish va karyera imkoniyatlari uchun yo‘l. Miasto Przyszlosci, 55(1), 411–413. <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/5634/5322>
2. Cambridge University Press. (n.d.). Cambridge IELTS practice tests, Test 5 (p. 92).
3. Simpson, S. (n.d.). Target band 7: IELTS academic module – How to maximize your score (p. 52).
4. Cambridge University Press. The official Cambridge guide to IELTS (p. 156).
5. Cambridge University Press. The official Cambridge guide to IELTS (p. 156).
6. Coxhead, A. (2000). A New Academic Word List. TESOL Quarterly, 34, 213-238.
7. Serrano, M.G. (2020). Learning vocabulary for IELTS Academic Reading: An evaluation of some pedagogical materials. Language Value.
8. Benthuysen, R.V. (2004). VOCABULARY INSTRUCTION: USING A WORD LIST TO FOCUS ATTENTION.
9. Everett, R.A., & Colman, J. (2003). A critical analysis of selected IELTS preparation materials.
10. Cullen, P., French, A., & Jakeman, V. (2014). The official Cambridge guide to IELTS for academic & general training : student's book with answers.
11. Mickan, P., & Motteram, J. (2009). The preparation practices of IELTS candidates: Case studies.
12. Chalmers, J., & Walkinshaw, I. (2014). Reading strategies in IELTS tests: Prevalence and impact on outcomes. English Australia journal, 30, 24-39.

13. Pomortseva, N.P., Shigapova, F.F., & Antropova, A.E. (2022). Teaching “Effective Reading” in a Foreign Language (Based on IELTS Training Materials). Pedagogika. Voprosy teorii i praktiki.
14. Zaripov, K. Y. (2024). INGLIZ TILINI CHUQUR O’RGANISHDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH METODIKASI. Inter education & global study, (8), 94-107.
15. Matnazarova, K. Oliy Ta’lim Muassasalari talabalarining kasbiy-amaliy ko ‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari. Xalq Ta’limi.